

**“ZAMONAVIY SINOV - O‘ZBEKISTONDA YO‘L TIRBANDLIGI:
MAVJUD MUAMMOGA YECHIMLAR”**

Qodirov Abubakr Nodirxon o‘g‘li

Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo‘nalishi 2- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)

Annotatsiya: *Tirbandlik muammosi ko‘plab yirik shaharlar va poytaxtlarda kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Bu holat nafaqat transport tizimining samaradorligini pasaytiradi, balki insonlarning vaqtini behuda sarflashiga, atrof-muhitning ifloslanishiga va iqtisodiy samaradorlikning kamayishiga olib keladi. Ushbu maqolada O‘zbekiston shaharlarida, ayniqsa Toshkent shahrida tirbandlik muammosining asosiy sabablari, ularning ijtimoiy ta’siri hamda bu muammoni kamaytirish bo‘yicha ilg‘or va amaliy yechimlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tirbandlik, avtomobillar, shaharsozlik, modernizatsiya, kengaytirish, tartibsizlik.*

Аннотация: *Проблема пробок на дорогах стала неотъемлемой частью повседневной жизни многих крупных городов и столиц. Такая ситуация не только снижает эффективность транспортной системы, но и приводит к пустой трате времени людей, загрязнению окружающей среды и снижению экономической эффективности. В статье рассматриваются основные причины возникновения транспортных заторов в городах Узбекистана, особенно в Ташкенте, их социальное влияние, а также передовые и практические решения по снижению этой проблемы.*

Ключевые слова: *Пробки, автомобили, городское планирование, модернизация, расширение, хаос.*

Abstract: *The problem of traffic jams has become an integral part of everyday life in many large cities and capitals. This situation not only reduces the efficiency of the transport system, but also leads to a waste of people's time, environmental pollution and a decrease in economic efficiency. This article discusses the main causes of the traffic jam problem in the cities of Uzbekistan, especially in Tashkent, their social impact, and advanced and practical solutions to reduce this problem.*

Keywords: *Traffic jams, cars, urban planning, modernization, expansion, chaos.*

KIRISH.

Tirbandlik – zamonaviy shahar hayotining eng dolzarb muammolaridan biridir. Aholining ko‘payishi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi natijasida shaharlar tobora kengayib bormoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston, xususan poytaxt Toshkent shahrida avtomobillar sonining keskin ortishi va yo‘l infratuzilmasining bunga tayyor emasligi tirbandlik muammosini dolzarb masalaga aylantirdi. Tirbandliklar faqatgina yo‘llardagi harakatni sekinlashtiribgina qolmay, iqtisodiyot, atrof-muhit va aholi salomatligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

ASOSIY QISM

Har qaysi rivojlangan va yoki endilikda rivojlanayotgan mamlakatlarda ham har doim global hisoblangan muammo – bu Tirbandlik masalasi. Shu bilan birga O‘zbekistonda ham bu muammo yo‘q emas. Quyida ushbu masalaning asosiy sabablariga to‘xtalamiz:

1. Toshkentda avtomobillar soni har yili o‘tib bormoqda. 2024-yil yakuniga ko‘ra, shaharda ro‘yxatdan o‘tgan avtomobillar soni 1 milliondan oshdi. Bu shahar infratuzilmasi sig‘imiga nisbatan juda katta ko‘rsatkichdir.

2. Shahar markazidagi ko‘plab ko‘chalar va chorrahalar 1960–1980-yillarda qurilgan bo‘lib, bugungi avtomobil oqimini qamrab olishga yaroqsiz holga kelgan.

3. Toshkentda avtomobillar harakatini boshqarishda zamonaviy ITS (Intelligent Transport System) tizimlari yetarli darajada joriy etilmagan. Shahar markazida faoliyat yuritayotgan savdo markazlari, ofis binolari uchun maxsus avtoturargohlar mavjud emasligi yo‘l bo‘yidagi to‘xtashlarga sabab bo‘lmoqda.

4. Metro, avtobus va marshrutka tizimlarining yetishmovchiligi va yo‘lovchi oqimini to‘liq qamrab ololmasligi ko‘plab aholining shaxsiy avtomobillardan foydalanishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, transport vositalari sonining ortib borishi, yo‘l infratuzilmasining eskiligi va torligi, noto‘g‘ri rejalashtirish va jamoat transportining yetarli darajada rivojlanmagani asos omillardan hisoblanadi. Ushbu modernizatsiya qilinmagan tarmoqlarning sababidan har kuni avtomobillar o‘rtasida tirbandlik yuzaga keladi deya olamiz. Tirbandlikning asosiy sabablari orasida transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi muhim o‘rin tutadi. Shaharlar aholisi sonining oshishi, avtomobillar sonining ko‘payishi bilan yo‘l tarmoqlari va ko‘priklar yetarli emasligi aniq ko‘zga tashlanadi. Ko‘plab yo‘llar tor va eskirgan bo‘lib, ular kundalik transport oqimini qondira olmaydi. Bu holat ayniqsa ishga borish va qaytishda, maktab va universitetlarga borishda o‘zini ko‘rsatadi. Shuningdek, yo‘l harakati qoidalarining buzilishi, noto‘g‘ri parkovka va yo‘l harakati intizomining pastligi tirbandlikni yanada kuchaytiradi. Boshqa muhim sabablar orasida jamoat transportining rivojlanmaganligi va uning samarador emasligi ham bor. Ko‘plab odamlar o‘z shaxsiy avtomobillaridan foydalanishni afzal ko‘radi, chunki jamoat transporti qulay emas, vaqti-vaqti bilan kechikadi yoki yo‘lovchi sig‘imi cheklangan. Natijada, yo‘llarda shaxsiy avtomobillar soni oshadi, bu esa tirbandlikni kuchaytiradi. Shuningdek, yo‘l harakati uchun zarur bo‘lgan texnologik yechimlar, masalan, aqlli svetoforlar va transport oqimini boshqarish tizimlari yetarli darajada joriy etilmagan.

Keyingi masala – ba‘zan biz guvohi bo‘lamizki, fuqorolar transport madaniyati va yo‘l-harakat qoidalariga to‘liq rioya qilishmaydi. Bu holat tabiiyki tirbandlik xolatiga olib keladi. Ko‘plab haydovchilar mumkin bo‘lmagan joylarga parkovka qiladilar, tezlik oshiradilar yoki yo‘l berish qoidalarini bajarmaydilar. Bu jarayon bevosita yo‘l harakati oqimini sekinlashtiradi va tirbandlikni kuchaytiradi.

Yana bir to‘xtalishimiz kerak bo‘lgan masala – bu velosipedchilar va piyodalar. Ular ba‘zi hollarda o‘z xavfsizligini ta‘minlash uchun belgilangan yo‘llardan foydalanmaydilar. Bu esa o‘z-o‘zidan transport oqimini murakkab vaziyatga tushirib qo‘yadi.

Albattaki, har bir muammo yechimlarga ega. Buning uchun esa mas'uliyat, izlanuvchanlik va tajriba kerak bo'ladi. Shunday muammolar borki yechim orqali u bartaraf ham etish mumkin yoki uning rivojlanish salmog'ini nazorat qilish mumkin. Tirbandlikni kamaytirish va aholining tirbandlik vaqtini qisqartirish uchun esa bir qancha samarli usullar ham bor. Ular:

1. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish,
2. Mavjud yo'llarni kengaytirish,
3. Yangi yo'llarni qurish,
4. Ko'priklar va tunellar qurish.

Jamoat transportini rivojlantirish va uning sifatini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy va qulay avtobuslar, metropoliten tarmoqlarini kengaytirish, tramvay va trolleybuslar sonini ko'paytirish orqali odamlarni shaxsiy avtomobillardan jamoat transportiga o'tishga rag'batlantirish mumkin. Jamoat transportining ishonchliligi va qulayligi oshsa, yo'llardagi avtomobillar soni kamayadi va tirbandlik kamayadi. Shaharsozlik va transport rejalashtirish sohasida ilg'or texnologiyalarni joriy etish ham samarali yechim bo'lishi mumkin. Aqlli svetoforlar, transport oqimini boshqarish tizimlari, GPS va mobil ilovalar yordamida yo'l harakati nazorat qilinishi va yo'lovchilar uchun eng qulay yo'llar tanlanishi mumkin. Bu texnologiyalar tirbandlikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillar oralig'ida mamlakatimizdagi shaharsozlik sohasida ham qator rivojlanishlar o'z samarasini berayotgani katta yutuqlarimizdan biri. Masalan, Shahar infratuzilmasini tartibga solish loyihalari, Shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va raqamlashtirish, Yo'l infratuzilmasini kengaytirish loyihalari va Shaharsozlik normalari va qoidalarini modernizatsiya qilish haqida Prezident Shavkat Mirziyoyevning qaror va farmonlari imzolandi va tatbiq qilinishi uchun start oldi.

XULOSA:

O'zbekiston, ayniqsa poytaxt Toshkent shahrida so'nggi yillarda shaharsozlik va transport infratuzilmasini rivojlantirish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning markazida xalq uchun xavfsiz, qulay va ekologik barqaror shahar muhitini yaratish maqsadi yotadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan qabul qilingan qarorlar, olib borilgan keng ko'lamli rekonstruksiya ishlari, jamoat transportini modernizatsiya qilish, intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish va raqamli yechimlar orqali muammolarga zamonaviy yondashuvlar joriy qilinmoqda. Tirbandliklar, notartibiy qurilish va infratuzilmaning yaroqsizligi kabi dolzarb muammolarga qarshi qat'iy chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Shuningdek, shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, arxitektura va qurilish jarayonlarini raqamlashtirish, xalqaro standartlarga mos normativ-huquqiy bazani shakllantirish orqali rivojlanishning tizimli va barqaror asoslari yaratilmoqda. Kelgusida bu boradagi islohotlar faqat Toshkent bilan cheklanib qolmay, barcha viloyatlar va tuman markazlariga kengaytirilishi zarur. Shaharlarni kompleks rejalashtirishda aholining fikri, ekologik xavfsizlik, transport-logistika imkoniyatlari va zamonaviy urbanistik yondashuvlar asosiy mezon bo'lib xizmat qilishi lozim. Natijada, nafaqat tirbandlik muammosi hal qilinadi, balki iqtisodiy faollik, ijtimoiy barqarorlik va aholining hayot sifati tubdan yaxshilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy ma'lumotlari – www.mintrans.uz
2. “Toshkent shahar transport tizimi rivojlanish konsepsiyasi” – Toshkent shahar hokimligi, 2023
3. World Bank. “Urban Transport Review of Uzbekistan.” 2022
4. Asian Development Bank. “Improving Urban Mobility in Central Asia.” 2021
5. “Avtomobil tirbandliklari va ularni bartaraf etish mexanizmlari” – “Yuksalish” ilmiy jurnali, 2024-yil, №2
6. Toshkent shahar hokimligi press-relizlari va intervyulari, 2023–2024 yillar
7. World Bank. “Urban Transport and Sustainable City Planning in Central Asia”, 2022
8. Asian Development Bank. “Smart Infrastructure Projects in Uzbekistan”, 2023